



## SAYLOV QONUNCHILIGI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Muzaffarov Ikromjon**  
**Nodirbek o'g'li**

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*  
*ikromjon.muzaffarov01@gmail.com*

Аннотация

Mazkur maqolada Qadimgi davrdan to hozirgi kunga qadar bo'lgan davrda saylov tizimining rivojlanish bosqichlari hamda saylovga oid qonunchilik normalarining sharq va g'arb mamlakatlarida taraqqiy etishi qanday bosqichlarni bosib o'tganligi haqida qiyosiy va solishtirma tahlillar yoritilgan. Shu bilan birga O'zbekiston tarixida saylov qonunchiligining o'ziga xos jihatlari, o'tgan davr mobaynida milliy saylov tizimi va saylov qonunchiligini izchil takomillashtirish borasida amalga oshirilgan islohotlar va o'zgarishlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Saylov, qonunchilik normalari, saylov turlari, sharq va g'arb saylov tizimi, loviya donalari, qur'a, ovoz berish.

## ИЗБИРАТЕЛЬНАЯ ЗАКОННОСТЬ И ЕЕ ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ

**Аннотация:** В статье проводится сравнительный и сопоставительный анализ этапов развития избирательной системы с древнейших времен до наших дней, а также этапов развития избирательного законодательства в странах Востока и Запада. При этом описываются особенности избирательного законодательства в истории Узбекистана, а также реформы и изменения, осуществленные за прошедший период в целях последовательного совершенствования национальной избирательной системы и избирательного законодательства.

**Ключевые слова:** Выборы, законодательные нормы, виды выборов, восточные и западные избирательные системы, фасоль, лотерея, голосование.

## ELECTORAL LEGALITY AND ITS HISTORICAL STAGES OF DEVELOPMENT

**Abstract:** The article provides a comparative and contrastive analysis of the stages of development of the electoral system from ancient times to the present day, as well as the stages of development of electoral legislation in the countries of the East and West. At the same time, the features of the electoral legislation in the history of Uzbekistan are described, as well as the reforms and changes implemented over the

past period in order to consistently improve the national electoral system and electoral legislation.

**Key words:** Elections, legislative norms, types of elections, eastern and western electoral systems, beans, lottery, voting.

## KIRISH

Qadim o'tmish zamonlaridan to hozirgi davrgacha bo'lgan vaqt oralig'ida hokimyat va unda xalq ishtiroki masalalari to'g'risida turli xil nazariy va amaliy jarayonlar davom etib kelmoqda. Bu jarayonlarda davlat hokimyatini xalq irodasi asosida shakllantirish sifatida saylov tizimi tushuniladi.

Ushbu tizim qadimgi sivilizatsiya markazlari bo'lgan Yunoniston, Rim, Xitoy, Hindiston, Misr, Mesopatamiya va O'rta Osiyo hududlarida turli ko'rinishlarda paydo bo'ldi va dunyo tamadduni rivojida shakllana bordi. Shu asosda saylov jarayoni uzoq rivojlanish bosqichini turli davlatlarda turli ko'rinishlarda bosib o'tdi. Yuqoridagi ta'kidlab o'tganidek, saylov jarayoni bugun yoki kecha paydo bo'lgan emas<sup>1</sup>. U asrlar davomida sayqallanib, rivoj topib kelmoqda. Shu o'rinda saylov jarayoni nima? Saylov – ovoz berish orqali davlat organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish vositasidir. Fuqarolarning o'z saylov huquqini amalga oshirishi – ularning davlatni boshqarishda ishtirok etishining eng muhim shakllaridan biri<sup>2</sup>. Demak, davlat hokimyatining asosi bo'lgan turli organlarni boshqaruv ishida keng xalq ommasi o'zlari tomonidan maqbul ko'rilgan nomzodga ovoz berishadi va shu asosda o'zlari saylagan vakillari yordamida bilvosita mamlakat boshqaruvida qatnashadilar va o'z huquqiy manfaatlarini himoya qilishadi. Ammo ushbu saylov tizimi hozirgi tuzilishiga turli davrlardagi nazariya va amaliy jarayonlar orqali takomillashib kelmoqda. Mazkur jarayon qanday rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi? degan savolga javob topmog'imiz lozim.

Eramizdan avvalgi davrlarda qadimgi odamlar hayotida saylov jarayonining ma'lum bir shakllari mavjud bo'lgan. Qadimgi davrdagi saylov tushunchasi o'ta sodda va o'sha davr uchun xos bo'lgan tuzilma asosida bo'lib, bunda xalqning ma'lum bir maqsad va mohiyati aks etgan. Qabilalar shakllana borishi bilan ular orasida raqobat hamda yer-suv uchun tortishuvlar vujudga keladi. Vaqti-vaqti bilan yuz beradigan qabilalar o'rtasidagi to'qnashuvlar kuchlar nisbatini yanada oshirishni va qabila rahbarlari saylovi jarayonini yanada mukammalroq bo'lib borishini talab etgan. Doimiy harbiy to'qnashuvlar sharoitida qabilalar ittifoqlari paydo bo'ldi. Bu ittifoqlarda esa harbiy sardorlarni mol-mulkiga, harbiy mahoratiga va jamoa orasidagi obro' e'tiboriga qarab rahbarlikka saylashgan. Shu asosda jamiyatda asta - sekinlik bilan xalq hokimiyati ya'ni demokratiya rivojlana borgan. Vaqtlar o'tib qabila ittifoqlari shakllanib, shahar va davlatlar vujudga kela boshladi.

G'arbning ko'hna davlatlaridan biri bo'lmish qadimgi Yunonistonning Afina shahar-davlatida milloddan avvalgi 594-yilda Solon ismli xalq tarafdori bo'lgan zodagon hokimyatga keladi. U hokimyatni boshqarishda aslzodalar boshqaruvi bo'lgan

<sup>1</sup> J.O.Saidov JDPI, Tarix va uni o'qitish metodikasi stajyor-o'qituvchisi. "Qadimdan to hozirgi davrgacha saylov jarayonining sayqallanishi".

<sup>2</sup> "Ochiq ensiklopediya". (Vikipediya) <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Saylov>

aristokratiyani bekor qilib, xalq hokimiyatiga asoslangan demokratiyani joriy etadi<sup>3</sup>. Ungacha amaldagi qonunlarga o'zgartirish kiritib, davlat boshqaruvida, qonunlar tuzishda xalq ishtirokini ta'minlovchi qoidalarni kiritadi. Afinadagi davlatning eng yuqori organi - xalq majlisiga mansabdor shaxs saylangan va majlisga o'z saylovi davrida amalga oshirgan ishlari xususan, qurilish sohasi, qonunlar qabul qilish, shahar mudofasini tashkil etishdagi faoliyati haqida hisobot taqdim etib borgan. Umumxalq kengashlariga ham xalq o'z yetakchilarini saylagan. Shu tariqa boshqaruvni saylov tizimi orqali tashkil etishning dastlabki ko'rinishlari shakllangan.

Yunonistondagi saylov jarayoni ochiq ovoz berish va qur'a tashlash yordamida maxfiy ovoz berish usuli asosida o'tkazilgan. Saylov varaqasi vazifasini esa loviya doni bajargan. Bunda oq rangli loviya "ijobiy" javobni, qora rangli loviya "salbiy" javobni bildirgan<sup>4</sup>.

Qadimiy Rimda saylov jarayoni o'ziga xos ko'rinishda tashkil etilgan. Mamlakatdagi saylovoldi tadbirlari saylovlar o'tkazilishidan ancha ilgari boshlangan. Nomzod hukumat a'zolariga saylovlarda ishtirok etish to'g'risidagi xohishini bildirgan, shundan so'ng saylovoldi tadbirlari boshlangan. Saylovoldi tadbirlari quyidagicha o'tkazilgan: nomzod oq libos kiyib saylovchilardan unga ovoz berishlarini va qo'llab-quvvatlashlarini so'rab, bozor va maydonlarga yo'l olgan. Saylov kuni saylovchilar maxsus taxtachalarga o'zlari ovoz bergan nomzod ismini yozib katta savatga tashlashgan. Davrlar o'tib insonlar turmush tarzi, yashash sharoiti bilan birga siyosiy jarayonlar ham o'zgarib, goh rivojlanib, gohida esa biqqlikka yuz tutgan. Bunga o'sha davr sharoiti taqazosi va turli mamlakatlar aholisining dunyoqarashi mahsuli sifatida qarash lozim<sup>5</sup>.

Qadimgi davlatlarda saylov jarayonlarini o'tkazilishi va qonunchilik normalari shakllanishi haqida xulosa qiladigan bo'lsak, demokratiya va zamonaviy saylovlar qadimiy Yunoniston va Rimdan butun dunyo mamlakatlariga me'ros bo'lib kelganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Xalqning xohish istagi inobatga olinishi demokratiya va umuminsoniy qadryatlarning mamlakatda ustivor bo'lganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Qadimiy davrlarda insonlar o'z yetakchilarini ovoz berish orqali aniqlagan. Umumxalq kengashlarida xalq o'z yetakchilarini saylagan. Shu tariqa hukmronlikning dastlabki ko'rinishlari shakllangan. Bu esa ibtidoiy davrning o'ziga xos demokratiyasi edi.

Bugungi barcha demokratik davlatlarda o'tkaziladigan saylovlar uzoq tarixga ega. Zamonaviy saylovlar tarixi, mamlakatning siyosiy hayotiga o'z hissasini qo'shgan va xalq yig'ilishlarida barcha ozod fuqarolar ishtirok etgan. Qadimgi Yunoniston va Rimda saylovlarda xalq istagi mamlakat qonunchiligining asosini tashkil qilgan.

Qadimiy Afinada yana bir maxfiy ovoz berish usuli mavjud bo'lgan. Unga ko'ra, faoliyati davomida demokratiya asoslariga xavf solinishi ehtimoli kuzatilayotgan davlat arbobi xalq mamlakatdan tashqariga quvg'in qilish huquqiga ega bo'lgan.

<sup>3</sup> Afinada Solonning islohotlari va Demokratiyaning yuksalishi <https://uz.eferrit.com/afinada-solonning-islohotlari-va-demokratiyaning-yuksalishi/>

<sup>4</sup> D.D.Adxambayevna Saylovning kelib chiqish tarixi. <https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=67063>

<sup>5</sup> "Qadimgi Rimda diplomatiya va xalqaro munosabatlar" <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/tarix/qadimgi-rimda-xalqaro-munosabatlar-va-diplomatiya>

Quvg'in bo'yicha ovoz berish jarayonida ishtirok etayotgan fuqaroga sopoldan yasalgan buyum taqdim etilgan. Fuqaro Afinadan quvg'in qilinishi kerak bo'lgan odamning ismini sopol buyumga yozgan va buyumni shahar maydonida tashkil etilib, qo'riqlanadigan maxsus joyda qoldirgan. Qaysi davlat arbobining nomzodi ko'p ovoz olsa, o'sha shaxs quvg'in qilingan.

Qadimiy Rimda saylovoldi tadbirlari saylovlar o'tkazilishidan ancha ilgari boshlangan. Nomzod hukumat a'zolariga saylovlarda ishtirok etishi to'g'risidagi xohishini bildirgan. Shundan so'ng saylovoldi tadbirlari boshlangan. Saylovoldi tadbirlari quyidagicha o'tkazilgan: nomzod oq libos kiyib (oq rangli libos nomzodning xalq oldida vijdoni toza ekanligini anglatgan), saylovchilardan unga ovoz berishlarini va qo'llab-quvvatlashlarini so'rab, bozor va maydonlarga yo'l o'lgan. Saylov kuni saylovchilar maxsus taxtachalarga o'zlari ovoz bergan nomzod ismini yozib katta savatga tashlagan<sup>6</sup>.

Yunonlarning erkin jamiyat, tenglik kabi qarashlari (miloddan avvalgi V - I asrlarda) keyinchalik Rim imperiyasi tomonidan ham faol tatbiq etilgan. Mamlakat mustaqilligining asosi o'z xohish istaklarini xalq kengashlarida bayon etib keladigan xalq hisoblangan. Xalq kengashlarida qonunlar qabul qilingan va bekor qilingan, tinchlik bitimlari tuzilgan hamda urushlar e'lon qilingan, xalq vakillari, din arboblari saylangan, chiqarilgan sud hukmlari muhokama qilingan, mamlakat hayotiga oid eng muhim qarorlar qabul qilingan.

O'rta asr davlatlarining ko'pchiligida monarxiya shakli hukmronlik qilgan, xuddi shuningdek, Yevropa davlatlarida ham dastlab monarxiya tuzumi hukmron bo'lgan. Vaqtlar o'tib taxtning merosiy bo'lishi xalq orasida noroziliklarni kuchaytirib yuborgan. Sulolalar almashinuvi qonli urushlarga ulanib borgan. Mazkur holatlar asosida xalq orasida demokratiyaga bo'lgan ishonch va bu borada olib borilgan qo'zgolonlar vaqtlar o'tib o'z samarasini bergan.

O'rta asrlarda Yevropada davlat va jamoat institutlarining evolyutsiyasi sodir bo'ldi. German qabilalari orasida "harbiy demokratiya" rivoj topdi. Nemis qabilasining har bir to'liq a'zosi shaxsan va bevosita davlat boshqaruvida qatnashgan va demokratiya tashuvchisi sifatida harakat qilgan. Xalq majlisida oqsoqollar, lashkarboshilar, podshohlar saylandi. Xalq majlisi urush va tinchlik masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish va sud funksiyalarini amalga oshirish huquqiga ega edi.

Franklar orasida xalq yig'inlari evolyutsiyasi davlat hokimiyatini mustahkamlash va shunga mos ravishda keng ommani davlat ishlarida ishtirok etishdan tobora ko'proq yo'q qilish yo'lida bordi.

Anglo-sakson qirolliklarida o'zini o'zi boshqarish institutlarining evolyutsiyasi franklar yo'li bilan bir xil bo'lgan, garchi ilk o'rta asrlarda Angliyada "harbiy demokratiya" elementlari, birinchi navbatda, mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimida ancha uzoqroq saqlanib qolgan sud-ma'muriy tuzilma shakllandi<sup>7</sup>.

Shunday qilib, ilk o'rta asrlar jamiyati saylov tamoyillarining zaif rivojlanishi bilan ajralib turardi. Tanlangan elementlarni kundalik hayotda eng aniq ko'rish mumkin. Saylov jarayoni ko'pincha taklif qilingan nomzodga rozilik va ma'qullashni

<sup>6</sup> "Qadimda saylovlar qanday o'tkazilgan" <https://www.saylov.uz/oz/election-blog/blog/qadimda-saylovlar-qanday-o-tkazilgan>

<sup>7</sup> D.D.Adxambayevna Saylovning kelib chiqish tarixi. <https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=67063>

anglatardi. Ammo o'rta asr shaharlarining paydo bo'lishi bilan G'arbiy Yevropada saylovlar va saylov jarayonlari rivojlanishda sezilarli turtki bo'ldi. Bu hokimiyatning yangi tashkil etilishi bilan bog'liq edi. Shaharlar saylovlar va saylov tartib-qoidalarining rivojlanishini oldindan belgilab bergan o'zlarining o'zini o'zi boshqarish organlari va sudlarini shakllantira boshladilar. Shahar hokimiyatining xarakterli institutlari kengashlar va ularni boshqaradigan merlar edi. Saylov qoidalari juda qattiq edi. Ko'pgina kommunalarda saylangan amaldorlar o'z saylovlarini rad eta olmadilar.

Florentsiya va Venetsiya respublikalarida saylovlar va saylov jarayonlari juda rivojlangan edi. Florentsiya Respublikasining saylov tizimi ko'p bosqichli qur'a tashlash va qisqa muddatli magistratura bilan ajralib turardi. Venetsiya Respublikasida xalq majlisi respublikaning bir umrlik hukmdori Dogeni va qonun chiqaruvchi funksiyalarga ega bo'lgan "Donolar kengashi"ni sayladi. Siyosiy institutlarni shakllantirishda 20 yoshdan oshgan barcha erkin fuqarolar qatnashdilar. Maxsus saylov tartib-qoidalaridan foydalanildi<sup>8</sup>. Mulk vakillik organlari birinchi marta Ispaniyada (Kortes), XIII asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. Angliya parlamenti paydo bo'ldi. XIV asr boshlarida Fransiyaning general shtatlari paydo bo'ldi. XIV-XV asrlarda Germaniyada Landtag va Reyxstag, Polsha Seymi va boshqa mulk-vakillik organlari tuziladi.

Fransiyadagi general shtatlar sinf vakillarining oliy organi sifatida XIV asr boshlarida vujudga kelgan. Fransiya, butun o'rta asrlardagi Yevropa kabi, hali saylov huquqini bilmagan va "saylov" so'zining ma'nosi zamonaviy so'zdan sezilarli darajada farq qilar edi. Shuning uchun biz faqat saylov elementlari haqida gapirishimiz mumkin. Saylovlar mulk bo'yicha o'tkazildi, saylovchilar soni mulkiy malakaga qarab cheklandi. General Estates hech qachon davlat apparatining ajralmas qismiga aylanmagan, ular juda kam uchrashgan.

Tarixning o'rta asrlarida iqtisodiy jihatdan rivojlangan Angliyada XIX asr boshlarida 20 million kishilik aholidan faqat 220 ming kishi saylov huquqiga ega edi va asosan hokimiyat boshqaruvida yirik yer egalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar ishtirok etishgan. Bunga sabab saylov jarayoni uchun joriy etilgan mulk senzi edi. Shu asosda mayda burjuaziya va ishchilar siyosiy tuzumni demokratlashtirishni hamda umumiy saylov huquqini joriy qilishni talab etishgan.

Ko'p yillik kurashlardan so'ng 1824-yilda qisman saylov tizimida islohotlarga erishildi. Dunyodagi taraqqiyot yangi tizimlar yaratilishini talab qiladi. Amerika qit'asi yangi dunyo deb atalishi be'jiz emas chunki aynan ushbu qit'ada tarixda birinchi marta prezidentlik saylovi o'tkazilgan. Ushbu dunyodagi birinchi prezidentlik saylovida 1789-yil 4-fevralda Jorj Vashington nomzodi prezidentlik saylovida g'alaba qozonadi hamda AQSH dunyo tarixida birinchi Prezident lavozimini egallagan shaxs sifatida tarixda qoldi. O'sha davr haqidagi ilmiy ma'lumotlarda quyidagi yoziladi: "Jorj Vashington saylovda bir ovozdan xalqqa ma'qul keladi va shu kundan AQSh yangi davr debochasini boshlab berdi".

Dunyodagi ko'plab davlatlarda Respublika tuzumi o'rnatilgach demokratik erkinlarga ham asta-sekinlik bilan ruhsat etila boshlangan. Hozirgi davrda turli davlatlarda saylov jarayonlari turlicha kechadi. Masalan: saylovoldi tashviqotini

<sup>8</sup> "Ochiq ensiklopediya". (Vikipediya) <https://uz.wikipedia.org/wiki/Florentsiya>

o'tkazish muddati Italiyada 20 kun oldin boshlanib, 24 soat qolganda yakunlanadi. Rossiyada saylov kamida 10 kun qolganida boshlanib, 1 kun qolganida tugallanadi. Finlandiyada esa saylov 48 kun qolganda boshlanib, Mahalliy saylov organi tomonidan belgilangan vaqtda tugallanadi<sup>9</sup>.

Vatanimiz tarixiga ham nazar soladigan bo'lsak, uzoq qarshiliklar va ozodlikka bo'lgan intilish hamda xalqimizning metin irodasi ila mustaqilligimizni qo'lga kiritgach demokratik tamoyillar asosida mamlakatimizni rivojlantirish asosiy maqsad qilib olindi. Shu asosda O'zbekiston tarixida birinchi bor 1990-yil 24-martda Respublikada Prezidentlik instituti tashkil etildi va shu asosida qator qonunlar qabul qilindi. 1991-yil 18-noyabrda Prezidentlik saylovlarini tartibga soluvchi qonunlar majmuyi qabul qilindi va shu yining 29-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobillik asosida saylov bo'lib o'tdi. Bunda Oliy lavozimga ikki nomzod - O'zbekiston xalq demokratik partiyasi va O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi nomzodi Islom Karimov hamda "Erk" demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov nomzodi qo'yiladi. Ushbu saylovda saylovchilarning 94,2 foizi (9,9 mln) ishtirok etgan. Unda katta ustunlikka ega bo'lgan Islom Karimov 87,1 foiz ovoz bilan g'alaba qiladi. Saloy Madaminov esa 12,5 foiz ovoz sohibi bo'ladi. Keyingi saylov natijalarida ham ustunlik Islom Karimov tomonida bo'ladi.

2016-yil 4-dekabrda bo'lib o'tgan saylovda Prezidentlik lavozimiga Shavkat Mirziyoyev saylanadi<sup>10</sup>. Shu kundan boshlab O'zbekiston uchun yangi siyosiy jarayonlar eshigi ochildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, bugun zamonning o'zi siyosiy partiyalarning ish uslubini tubdan o'zgartirish, ularning aholi, elektorat bilan muloqotini tizimli yo'lga qo'yishni talab etmoqda. Endi balandparvoz gaplarni chetga surib, aniq amaliy ishlar bilan odamlarimiz, saylovchilar ishonchini qozonish, ularning qalbidan joy olish kerak. Adolatli va farovon jamiyat qurish bu faqat rahbariyat yoki Prezident bilan bog'liq emas. Bu ustuvor vazifa har birimizning birdek maqsadimiz bo'lsagina, biz taraqqiyot eshiklarini qo'rqmay ocha olamiz. Zero, buyuk alloma Najmiddin Kubro takidlaganudek, muvoffaqiyatni sa'y-harakatda, muvoffaqiyatsizlikni esa loqaydlik va dangasalikda ko'rdim. Yangi o'tkaziladigan har bir saylovlar ham kelajak islohotlariga yo'l demakdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. J.O.Saidov JDPI, Tarix va uni o'qitish metodikasi stajyor-o'qituvchisi. "Qadimdan to hozirgi davrgacha saylov jarayonining sayqallanishi".
  2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi axborot xizmati.
  3. D.D.Adxambayevna Saylovning kelib chiqish tarixi.
  4. "Ochiq ensiklopediya". (Vikipediya) <https://uz.wikipedia.org/wiki/Florensiya>
  5. "Qadimda saylovlar qanday o'tkazilgan"
  6. "Qadimgi Rimda diplomatiya va xalqaro munosabatlar"
  7. [Afinada Solonning islohotlari va Demokratiyaning yuksalishi](#)
- Elektron manbaalar

<sup>9</sup> J.O.Saidov JDPI, Tarix va uni o'qitish metodikasi stajyor-o'qituvchisi. "Qadimdan to hozirgi davrgacha saylov jarayonining sayqallanishi".

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi axborot xizmati. <http://old.saylov.uz/oz/docs/2016-jil-4-dekabr-kuni-bolib-otgan-ozbekiston-respublikasi-prezidenti-sajlovi>

1. <http://old.saylov.uz/oz/docs/2016-jil-4-dekabr-kuni-bolib-otgan-ozbekiston-respublikasi-prezidenti-sajlovi>
2. <https://uz.eferrit.com/afinada-solonning-islohotlari-va-demokratiyaning-yuksalishi/>
3. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/tarix/qadimgi-rimda-xalqaro-munosabatlar-va-diplomatiya>
4. <https://www.saylov.uz/oz/election-blog/blog/qadimda-saylovlar-qanday-otkazilgan>
5. <https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=67063>